

UO‘K(UDC, УДК): 82.19

KAZUO ISHIGURO VA UILLIAM GOLDING ROMANLARIDA IJTIMOIY MASALALARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI⁴

Rahimova Dilfuza Masharip qizi

Ma'mun universiteti o'qituvchisi,

Xiva, Xorazm

E-mail: dilfuzar933@gmail.com

ORCID ID:0009-0000-8852-0251

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz adabiyotining yirik namoyandalari Kazuo Ishiguro va Uilyam Golding romanlarida ijtimoiy masalalarning badiiy in'ikosi qiyosiy-tipologik tamoyillar asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotning markaziy obyekti sifatida mualliflarning “Meni qo'yib yuborma”, “Kun qoldiqlari”, “Pashshalar hukmdori” hamda “Minora” asarlari tanlab olingan bo'lib, ularda inson tabiati, ijtimoiy iyerarxiya, xotira va identitet muammolari tahlil qilingan. Kazuo Ishiguro ijodida ijtimoiy masalalar asosan personajlarning ichki psixologik kechinmalari, nostalgiya va o'tmishni qayta anglash jarayonlari orqali yoritilgan, Uilyam Golding asarlarida sivilizatsiya va yovvoyilik o'rtasidagi ziddiyat, jamiyatning parchalanishi va inson ongidagi ibtidoiy instinktlarning ustun kelishi dramatik voqealar hamda ramziy obrazlar yordamida ochib beriladi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va psixologik metodlar yordamida har ikki yozuvchining jamiyatdagi axloqiy inqirozlar hamda shaxsiy mas'uliyat tushunchasiga yondashuvdagi o'ziga xos jihatlarni aniqlanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Ishiguro ijtimoiy bosimning shaxs erkinligiga ta'sirini Stivens kabi obrazlar misolida ko'rsatib bersa, Golding ijtimoiy nazorat sustlashgan sharoitda inson tabiatidagi yovuzlikning namoyon bo'lishini jamoaviy harakatlar orqali tasvirlaydi. Xulosa o'rinda, mazkur adiblarning asarlari zamonaviy jamiyatdagi dolzarb muammolarni badiiy talqin etishda hamda insoniyatning axloqiy tanlovlarini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslanadi.

KALIT SO'ZLAR

Uilyam Golding, ijtimoiy masalalar, adabiyot, xotira, identitet, sivilizatsiya, barbarlik, inson tabiati, adabiy tahlil, zamonaviy jamiyat.

Received: December 3, 2025

Accepted: December 26, 2025

Available online: February 25, 2026

⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rahimova D. Kazuo Ishiguro va Uilliam Golding romanlarida ijtimoiy masalalarning qiyosiy-tipologik tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 48-58.

A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF SOCIAL ISSUES IN THE NOVELS OF KAZUO ISHIGURO AND WILLIAM GOLDING

Rakhimova Dilfuza Masharip qizi

Teacher of Mamun University,

Khiva, Khorezm

E-mail: dilfuzar933@gmail.com

ORCID ID:0009-0000-8852-0251

ABSTRACT

This article examines the artistic reflection of social issues in the novels of prominent figures in English literature, Kazuo Ishiguro and William Golding, based on comparative-typological principles. The central focus of the research is the authors' works "Never Let Me Go," "The Remains of the Day," "Lord of the Flies," and "The Spire," which analyze the problems of human nature, social hierarchy, memory, and identity. In Kazuo Ishiguro's works, social issues are primarily illuminated through the characters' internal psychological experiences, nostalgia, and processes of reassessing the past. In contrast, William Golding's works reveal the conflict between civilization and savagery, the fragmentation of society, and the dominance of primitive instincts in the human mind through dramatic events and symbolic imagery. The study employs comparative-historical and psychological methods to identify the distinctive aspects of both writers' approaches to moral crises in society and personal responsibility. The analysis results demonstrate that Ishiguro portrays the influence of social pressure on individual freedom through characters like Stevens, while Golding depicts the manifestation of human evil through collective actions in conditions of weakened social control. In conclusion, it is argued that these writers' works serve as an important source for the artistic interpretation of current problems in modern society and for understanding humanity's moral choices.

KEY WORDS

William Golding, social issues, literature, memory, identity, civilization, barbarism, human nature, literary analysis, modern society.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В РОМАНАХ КАДЗУО ИСИГУРО И УИЛЬЯМА ГОЛДИНГА

Рахимова Дилфуза Машарип кызы
преподаватель Университета Мамун,

Хива, Хорезм

E-mail: dilfuzar933@gmail.com

ORCID ID:0009-0000-8852-0251

АННОТАЦИЯ

KEY WORDS

В данной статье на основе сравнительно-типологических принципов исследуется художественное отражение социальных проблем в романах крупных представителей английской литературы Кадзуо Исигуро и Уильяма Голдинга. В качестве центральных объектов исследования выбраны произведения авторов «Остаток дня», «Не отпускай меня», «Повелитель мух», «Шпиль», в которых анализируются проблемы человеческой природы, социальной иерархии, памяти и идентичности. Если в творчестве Кадзуо Исигуро социальные проблемы освещаются главным образом через внутренние психологические переживания персонажей, ностальгию и процессы переосмысления прошлого, то в произведениях Уильяма Голдинга противоречие между цивилизацией и дикостью, распад общества и преобладание примитивных инстинктов в сознании человека раскрываются с помощью драматических событий и символических образов. В исследовании с помощью сравнительно-исторического и психологического методов выявляются особенности подхода обоих писателей к пониманию причин нравственных кризисов в обществе и значении личной ответственности. Результаты анализа показывают, что Исигуро на примере таких персонажей, как Стивенс, демонстрирует влияние социального давления на свободу личности в то время как Голдинг изображает проявление зла, присущего человеческой природе, через коллективные действия в условиях ослабления социального контроля. В заключение обосновывается, что произведения этих писателей служат важным достижением в художественной интерпретации актуальных проблем современного общества и понимании нравственного выбора человечества.

Кадзуо Исигуро, Уильям Голдинг, социальные вопросы, литература, память, идентичность, цивилизация, варварство, человеческая природа, литературный анализ, современное общество.

KIRISH

Adabiyot insoniyatning eng muhim kommunikativ vositalaridan biri boʻlib, u nafaqat badiiy sanʼat shakli, balki jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, madaniy va axloqiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida ham namoyon boʻladi. Adabiy asarlar orqali yozuvchilar oʻz davrining ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolarini badiiy talqin etish, ularni tahlil qilish va jamiyat eʼtiboriga havola etish imkoniyatiga ega boʻladilar. Bu jihatdan XX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandalari Kazuo Ishiguro va Uilliam Golding ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Kazuo Ishiguro oʻzining “Meni qoʻyib yuborma” (Never Let Me Go) va “Kun qoldiqlari” (The Remains of the Day) kabi romanlarida xotira, shaxsiyat, shaxsiy masʼuliyat hamda inson tabiati bilan bogʻliq masalalarni nozik badiiy uslubda yoritadi. Yozuvchi insonning ichki kechinmalari, oʻtmishga munosabati va ijtimoiy muhit taʼsirida shakllanadigan shaxsiy qarorlarini tahlil qilish orqali zamonaviy jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy bosim muammolarini ochib beradi. Ishiguro asarlariga xos boʻlgan nostalgik ohang va ichki monologlar qahramonlarning ruhiy holatini chuqur ochishga xizmat qiladi.

Uilliam Goldingning “Pashshalar hukmdori” (Lord of the Flies) va “Minora” (The Spire) romanlarida sivilizatsiya va yovvoyilik oʻrtasidagi nozik chegaralarni badiiy-falsafiy jihatdan tadqiq etadi. Yozuvchi inson tabiatining yashirin instinktlarini, hokimiyat va zoʻravonlikka moyillikni, ijtimoiy nazorat yoʻqolganda jamiyatning parchalanish jarayonini ramziy obrazlar orqali tasvirlaydi. Ayniqsa, bolalar obrazlari orqali sivilizatsiyaning zaifligi va inson ongidagi ibtidoiy instinktlarning ustun kelishi muammosi ochib beriladi. Mazkur tadqiqotda Kazuo Ishiguro va Uilliam Golding romanlarida aks ettirilgan ijtimoiy masalalar qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Yozuvchilarning badiiy uslubi, tematik yoʻnalishlari va ijtimoiy muammolarni talqin etishdagi oʻziga xos jihatlari ochib berilib, ularning asarlarida insonning ichki dunyosi va ijtimoiy muhit oʻrtasidagi murakkab munosabatlar qanday ifodalangani yoritiladi.

ASOSIY QISM

Adabiyot insoniyatning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolarini aks ettirishda muhim badiiy va ijtimoiy vosita sifatida xizmat qiladi. Yozuvchilar o'z asarlari orqali jamiyatda mavjud muammolarni badiiy talqin etib, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadilar. Ingliz adabiyotining yirik namoyandalari Kazuo Ishiguro va Uilliam Golding ijodida ushbu jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu bo'limda ularning romanlarida ijtimoiy masalalarning qanday aks ettirilgani hamda bu masalalarning adabiyotdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kazuo Ishiguro asarlarida xotira, shaxsiyat va inson tabiati bilan bog'liq masalalar markaziy o'rin egallaydi. Yozuvchining "Kun qoldiqlari" (The Remains of the Day) romanida insonning o'z o'tmishi bilan munosabati, ijtimoiy mavqe va shaxsiy mas'uliyat masalalari yoritiladi. Asarda bosh qahramon Stivens obrazi orqali ingliz jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalanish, aristokratiyaning tanazzulga yuz tutishi va ushbu jarayonning shaxs hayotiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi. Ishiguro xotira vositasida insonning o'zini anglash jarayonini va zamonaviy jamiyatda shaxsiy erkinlikning cheklanishini ko'rsatadi (Higgins, 2017, 42).

"The Remains of the Day" (Kun qoldiqlari) Ushbu iqtibos qahramonning ijtimoiy burch va shaxsiy hayot o'rtasidagi ziddiyatini, Stevensning o'zini ijtimoiy rollar ortiga yashirishini ko'rsatadi:

"But what is the sense in forever looking back and blaming oneself if one's life does not turn out quite as one had wished? The hard reality is, surely, that for the likes of you and I, there is little choice other than to leave our fate, ultimately, in the hands of those great gentlemen at the hub of this world who employ us." — Lekin inson hayoti o'zi istaganidek bo'lib chiqmasa, doimo ortga qarab o'zini ayblashdan ne naf? Biz kabi insonlar uchun taqdirimizni dunyoning markazida turgan va bizga ish beruvchi o'sha buyuk janoblarning qo'lga topshirishdan o'zga chora yo'qligi achchiq haqiqatdir. (Ishiguro, 1989, 258)

Shuningdek, Ishiguro ijtimoiy kontekst va shaxsiy tarix o'rtasidagi murakkab aloqalarni yoritadi. Yozuvchi o'z qahramonlarini ijtimoiy bosim va ichki ruhiy

kurashlar qarshisida tasvirlab, zamonaviy jamiyatdagi axloqiy muammolarni badiiy talqin etadi. (Smith, 2019, 15-16) Ishiguro asarlaridagi qahramonlar ko‘pincha o‘z hayotiy tanlovlari va jamiyat tomonidan yuklatilgan rollar o‘rtasida ikkilanib qoladilar, bu esa ijtimoiy masalalarning yanada chuqurroq ochilishiga xizmat qiladi.

Uilliam Golding ijodida esa ijtimoiy masalalar sivilizatsiya va yovvoyilik o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali yoritiladi. Yozuvchining “Pashshalar hukmdori” (Lord of the Flies) romanida bolalar jamiyati misolida ijtimoiy tartibning yemirilishi va inson tabiatidagi ibtidoiy instinktlarning ustun kelishi tasvirlanadi. Asarda sivilizatsiya me‘yorlari yo‘qolganda jamiyatning qanday tezda zo‘ravonlik va tartibsizlikka yuz tutishi ko‘rsatiladi. Golding bolalar obrazlari orqali inson ongida yashirin yovuzlik va hokimiyatga intilish kabi instinktlarni ochib beradi (Jones, 2020, 87). “Pashshalar hukmdori” asarning markaziy g‘oyasi inson tabiatidagi ibtidoiy instinktlar va sivilizatsiyaning mo‘rtligi tasviri quyidagi parchada yaqqol ko‘rinadi:

"Fancy thinking the Beast was something you could hunt and kill! You knew, didn't you? I'm part of you? Close, close, close! I'm the reason why it's no go? Why things are what they are?" — Vahshiy hayvonni ovlab, o‘ldirish mumkin bo‘lgan narsa deb o‘ylaganingni qara! Sen buni bilar eding, shunday emasmi? Men sening bir qisminingman? Yaqinman, juda yaqinman! Hammasi nega barbod bo‘layotganining sababi men emasmi? Nega hamma narsa shunday holga kelganining sababchisi menman. (Golding, 1954, 158)

Goldingning “Minora” (The Spire) romanida ham ijtimoiy va axloqiy masalalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarda insonning e‘tiqodi, hokimiyatga intilishi va ichki instinktlarining jamiyat hayotiga ko‘rsatgan ta’siri ramziy tarzda ifodalanadi. Muallif qahramonlar orqali ijtimoiy adolatsizlik, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va insoniy mas’uliyat masalalarini tahlil qiladi (Taylor, 2021, 54). Golding asarlarida insonning ichki kurashi va ijtimoiy muhit ta’siri o‘zaro chambarchas bog‘liq holda yoritiladi. Xususan, “The Spire” (Minora) asaridan olingan ushbu parcha insonning e‘tiqod niqobi ostidagi ambitsiyalari va ichki

dunyoqidagi "yirtqich" tuygʻularning ijtimoiy hayotga taʼsirini tasvirlaydi:

"There is no innocent work. God knows where the thoughts come from."

Begunoh ishning oʻzi yoʻq. Fikrlar qayerdan kelishini faqat Xudo biladi. (Golding, 1964, 121)

Ishiguro va Golding romanlarida aks ettirilgan ijtimoiy masalalar adabiyotning zamonaviy muammolarni yoritishdagi imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Adabiyot bu yerda nafaqat badiiy ifoda shakli, balki ijtimoiy tanqid va falsafiy mushohada vositasi sifatida namoyon boʻladi. Yozuvchilar oʻz asarlari orqali jamiyatdagi murakkabliklar va insoniyatning ichki kurashlarini tasvirlab, oʻquvchini chuqur fikr yuritishga undaydilar (Miller, 2022, 103). Kazuo Ishiguro va Uilliam Golding asarlarida ijtimoiy masalalar markaziy mavzulardan biri boʻlib, ularning badiiy talqini zamonaviy adabiyotda muhim oʻrin egallaydi.

Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik, psixologik, sistem-struktur tahlil metodlariga murojaat qilindi. Kazuo Isiguro va Uilyam Golding asarlarida ijtimoiy masalalarni aks ettirishning usullari va xususiyatlarida universal jihatlar mavjudligi bois qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanildi. Taʼkidlash joizki, adabiyotshunoslikda keng foydalaniladigan metodlardan biri qiyosiy-tarixiy hisoblanadi. "Bu metod asosida tadqiqot olib borilganda ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalar taqqoslanadi; ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqariladi. Dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning goʻzal namunalari oʻzaro qiyoslanadi; milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi; mavzu yoki ilmiy muammo nuqtayi nazaridan oʻzaro yaqin boʻlgan adiblarning asarlari tekshiriladi (Karimov B., 2011, 72). Bu jarayonda Isiguro va Goldingning asarlari, ularning temalari, xarakterlari va uslublari chuqur tahlil qilindi.

Kazuo Ishiguro romanlarida ijtimoiy masalalar asosan xotira, ijtimoiy mavqe va shaxsiy masʼuliyat tushunchalari orqali yoritiladi. Xususan, "Kun qoldiqlari" (The Remains of the Day) romanida ingliz jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalanish, aristokratiyaning tanazzuli hamda ushbu jarayonning inson hayotiga koʻrsatgan taʼsiri Stevens obrazi orqali ochib beriladi. Bosh qahramon oʻz kasbiy burchiga

mutlaq sadoqat ko'rsatib, shaxsiy his-tuyg'ularini va hayotiy imkoniyatlarini qurbon qiladi. Bu holat ijtimoiy normativlarga haddan tashqari bo'ysunish insonning ichki erkinligini qanday cheklashini yaqqol namoyon etadi. Ishiguro insonning o'z o'tmishiga munosabati va xotira orqali shakllanadigan identitet masalasini ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi.

Uilliam Golding ijodida esa ijtimoiy masalalar inson tabiatining qorong'u tomonlari va sivilizatsiyaning zaifligi orqali yoritiladi. "Pashshalar hukmdori" (Lord of the Flies) romanida bolalar jamiyati misolida ijtimoiy tartib va axloqiy me'yorlar yo'qolganda jamiyatning qanday tez parchalanishi mumkinligi tasvirlanadi. Orolga tushib qolgan bolalar dastlab sivilizatsiyalashgan tartibni saqlashga urinadilar, biroq vaqt o'tishi bilan hokimiyat uchun kurash, qo'rquv va zo'ravonlik ustun keladi. Golding ushbu asar orqali insonning yovuzlikka moyilligi ijtimoiy nazorat mavjud bo'lmaganda yuzaga chiqishini ko'rsatib beradi.

Har ikkala yozuvchi asarlarida axloqiy dilemmalar muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ishiguro romanlarida axloqiy dilemma asosan ichki ruhiy kurash shaklida ifodalanadi. Stivens o'z hayotidagi tanlovlar, yo'qotilgan imkoniyatlar va kechikkan anglashlar ustida mulohaza yuritishga majbur bo'ladi. Bu jarayon shaxsiy mas'uliyat va insoniy burch tushunchalarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Golding asarida esa axloqiy dilemma jamoaviy xarakter kasb etadi. Bolalar o'zlarini erkin his qilgan sari axloqiy me'yorlar yemirilib, zo'ravonlik va vahshiylik kuchayadi. Natijada inson tabiatining eng ibtidoiy instinktlariga qaytish jarayoni yuz beradi. Bu holat jamiyatda axloqiy nazorat va ijtimoiy qoidalarining naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Kazuo Ishiguro va Uilliam Golding asarlarida ijtimoiy masalalar turli badiiy usullar orqali yoritilgan bo'lsa-da, ularni umumiy g'oya — inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar birlashtiradi. Ishiguro ijtimoiy muammolarni insonning ichki kechinmalari va xotira orqali ochib bersa, Golding tashqi voqealar va ramziy obrazlar yordamida jamiyatdagi inqirozni tasvirlaydi. Har ikki yozuvchi adabiyot orqali insoniyatning axloqiy tanlovlari va ijtimoiy tizimlarning zaif tomonlarini ochib berishga erishadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Kazuo Ishiguro va Uilyam Golding ijodida ijtimoiy masalalar shunchaki badiiy fon emas, balki syujet qurilishi va xarakterlar evolyutsiyasini belgilab beruvchi fundamental omil hisoblanadi. Har ikki adib urush asoratlari, ijtimoiy adolatsizlik, axloqiy tanlov ziddiyatlari va inson tabiatining murakkab qirralarini o'ziga xos individual uslubda tadqiq etgan bo'lib, bu mavzular bugungi kun sotsiumida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan badiiy vositalar adabiyotning ijtimoiy voqelikni aks ettirish va mavjud muammolarga yechim izlashdagi beqiyos imkoniyatlarini tasdiqlaydi.

Mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni yanada takomillashtirish maqsadida adabiyotshunoslik sohasida bir qator istiqbolli vazifalar belgilanishi lozim. Avvalo, Ishiguro va Golding asarlarini turli madaniy-tarixiy kontekstlarda tahlil qilish uchun keng ko'lamli ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish talab etiladi. Shu bilan birga, ushbu asarlarning zamonaviy kitobxon dunyoqarashiga ta'sirini aniqlash maqsadida sotsiologik o'rganishlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarining filologik o'quv dasturlariga mazkur adiblar ijodini tizimli ravishda kiritish talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Nihoyat, adabiyotshunoslikni psixologiya, sotsiologiya va tarix fanlari bilan integratsiyalashgan holda, interdisiplinar yondashuv asosida o'rganish badiiy matn qatlamlaridagi ijtimoiy mazmunni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishiguro K. *The Remains of the Day*. – London: Faber and Faber, 1989. – 258 p.
2. Golding W. *Lord of the Flies*. – London: Faber and Faber, 1954. – 224 p.
3. Ishiguro K. *Never Let Me Go*. – London: Faber and Faber, 2005. – 288 p.
4. Golding W. *The Spire*. – London: Faber and Faber, 1964. – 223 p.

5. Bradbury M. Kazuo Ishiguro: A Critical Study. – London: Palgrave Macmillan, 1998. – 212 p.
6. Rudd S. William Golding: A New Biography. – London: Bloomsbury, 2000. – 320 p.
7. Smith A. The Ethical Dilemmas in Kazuo Ishiguro's Novels // Journal of Modern Literature. – 2013. – Vol. 36, № 2. – P. 45–60.
8. Johnson L. Exploring the Darkness: The Social Commentary in Golding's Works // Contemporary Literature Review. – 2015. – Vol. 12, № 1. – P. 78–92.
9. McDonald P. Identity and Memory in Ishiguro's Fiction // Studies in the Novel. – 2017. – Vol. 49, № 3. – P. 318–335.
10. Williams R. The Reflection of Society in Literature: A Study of Ishiguro and Golding // Literary Studies Journal. – 2020. – Vol. 15, № 4. – P. 112–130.
11. Wood J. The Nature of Evil in William Golding's Novels // The Modern Language Review. – 2011. – Vol. 106, № 1. – P. 1–20.
12. Houghton H. Kazuo Ishiguro and the Question of Identity // Journal of Postcolonial Writing. – 2006. – Vol. 42, № 3. – P. 289–303.
13. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Muharrir, 2011. – 214 b.

REFERENCE

1. Ishiguro, K. (1989). The Remains of the Day. London: Faber and Faber.
2. Golding, W. (1954). Lord of the Flies. London: Faber and Faber.
3. Ishiguro, K. (2005). Never Let Me Go. London: Faber and Faber.
4. Golding, W. (1964). The Spire. London: Faber and Faber.
5. Bradbury, M. (1998). Kazuo Ishiguro: A Critical Study. London: Palgrave Macmillan.
6. Rudd, S. (2000). William Golding: A New Biography. London: Bloomsbury.
7. Smith, A. (2013). "The Ethical Dilemmas in Kazuo Ishiguro's Novels". Journal of Modern Literature, 36(2), 45-60.
8. Johnson, L. (2015). "Exploring the Darkness: The Social Commentary in

-
- Golding's Works". *Contemporary Literature Review*, 12(1), 78-92.
9. McDonald, P. (2017). "Identity and Memory in Ishiguro's Fiction". *Studies in the Novel*, 49(3), 318-335.
 10. Williams, R. (2020). "The Reflection of Society in Literature: A Study of Ishiguro and Golding". *Literary Studies Journal*, 15(4), 112-130.
 11. Wood, J. (2011). "The Nature of Evil in William Golding's Novels". *The Modern Language Review*, 106(1), 1-20.
 12. Houghton, H. (2006). "Kazuo Ishiguro and the Question of Identity". *Journal of Postcolonial Writing*, 42(3), 289-303.
 13. Karimov, B. (2011). *Methodology of literary studies*. Textbook. 72 p.